



## MILLIY KIYIMLARNI KUNDALIK HAYOTIMIZ VA GARDEROBMIZDAGI O'RNI

*Farg'onan viloyati Oltiariq tumani*

*2-son kasb-hunar maktabi*

*Tikuvchilik yo'nalishi o'qituvchisi*

*Umarova Nigora*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy liboslarimizni zamonamizga ko'proq tadbiq etish, ish uchun mahsus liboslarda ham milliylik ask ettirilishi, yoshlarimizga milliy qadryatlarni unutmaslik bayon etilgan.

**Kalit so'z:** Milliy liboslar, taniqli brendlар, zamonaviy yoshlar, «Muqaddimatul-adab»da “yaktoyi, yaktayni kiydi”, pak matolari.

**Annotation:** This article describes how to make our national costumes more present in our time, as well as promote nationalism in special costumes for work, and not forget milliy values to our youth.

**Keyword:** National costumes, well-known brands, modern youth, in "Muqaddimatul-adab""wear yaktay, yaktay", pak fabrics.

Dizaynerlarimiz nega xanuzgacha yoshlar talabiga javob bera oladigan, zamonaviylikni milliylik bilan uyg'unlashtira olgan milliy liboslarni yarata olmayaptilar? Nega milliy libos kiymaymiz? Ko'pchilikdan ushbu savolni eshitaman. Chindan ham nega milliy liboslarimizni kundalik faoliyatimizda kiya olmaymiz?

Sababi ob-xavoga mutanosib liboslarni tanlash kerakligimi yoki doimiy kiyish uchun chidamli va qulay bo'lishi shartligi uchunmi? Odatda milliy liboslarimizni faqat bayramlarda, to'y-shodiyonlarda, ko'rgazmalarda, yangi kelin,



yangi kuyov bo‘lganimizda kiyish urf bo‘lgan. Kundalik faoliyatimizda esa milliy liboslarimizni deyarli kiymaymiz.

Zamonamiz yoshlari tor, ixcham, zamonaviy va qulay liboslarni xush ko‘rishadi. Dunyoning taniqli brendlariiga ko‘proq qiziqadilar. Bizning dizaynerlarimiz ham milliy liboslarimizni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirgan xolda dunyo brendlari bilan raqobatlasha oladigan milliy liboslarni yarata olishyapdi.

Darhaqiqat, dunyoning mashhur brendlari xar kuni yangi modelni taqdim qiladi. Turli tuman zamonaviy liboslar yoshlar talabiga javob beradi. Aks xolda ushbu brendlarga bo‘lgan talab bunchalik baland bo‘lmashdi.



Xo‘sh bizning milliy liboslarimiz qay darajada zamonga moslasha olyapti?

Agar biz atlas va adres deb ataluvchi matolarni milliy libos deb olsak, haqiqatdan ular tabiiy ipak matosidan, ekologik toza hisoblanadi ammo chidamli emas, bir ikki marta yuvilgach rangi o‘zgaradi, mato o‘z ko‘rinishini tez o‘zgartiradi. Ipalalar orasi yiriklashib, jipsligi yo‘qoladi. Kundalik faoliyatda bir necha bor kiyishga harakat qilganman. Ammo, yuqorida aytganimdek bu mato har kuni tozalashga berish imkoniga ega emasligi uchun faqat tadbirlarda kiyishga odatlanganmiz.

Aytish mumkinki, hindistonliklar o‘z milliy liboslarini hamisha kiyib yuradilar. Ammo ularning liboslarida yangicha yondashuvni deyarli sezmaysiz. Shunga qaramay necha asrlardan buyon o‘zgarmagan milliy liboslarini kiyib yurishlariga sabab ularning milliy qadriyatlariga, milliy liboslariga, milliy manfaatlariga bo‘lgan sadoqatidir. Aslida ularning milliy liboslari Hindistondagi



iqlim sharoitiga moslashganligi bilan ahamiyatlidir. Balki noqulay bo‘lsada milliy liboslarga sadoqat ko‘rsatishni Hindiston xalqidan o‘rganishimiz kerakdir!

Ma’lumki, yer sha’rida tabiiy jarayonlarning tez-tez o‘zgarib turishi liboslarga extiyoj tug‘dirgan. Miloddan avvalgi V ming yilliklargacha bo‘lgan davrda kiyimlar hayvonlar terisi, daraxt po‘stlog‘i, o‘simpliklar tolasidan foydalanilgan. U davrlarda kiyilgan kiyimlarning asosiy vazifasi kishi tanasini sovuq yoki issiqliqdan himoya qilish bo‘lgan.

Tarixiy-etnografik adabiyotlarda kiyimlar taraqqiyotining birinchi bosqichi to‘qimachilik (tur va gazlama to‘qish) texnikasining rivoji bilan bog‘liq deb taxmin qilinadi. To‘qima matolarning egiluvchanlik, bukiluvchanlik, o‘raluvchanlik shuningdek, to‘qima tur matolarning cho‘ziluvchanlik va turli shaklga tushish kabi xususiyatlaridan kishilar keng foydalana boshlaganlar. Qadimgi liboslar uchun xom ashyo maxsus yo‘rmaklangan yoki bog‘langan matodan iborat bo‘lgan. Ana shu mato yordamida kishilar o‘z badanini o‘rab olishgan. O‘sha davr odamlari ob-havoga qarab hamda o‘z ijtimoiy ahvoldidan kelib chiqqan holda to‘g‘ri turburchak elips shaklidagi mato liboslar kiyib yurishgan. Shu tarzda mato liboslarning himoya va ijtimoiy vazifasi kengayib, o‘zgarib borgan.

Dastavval kiyimlarning asosiy vazifasi kishi tanasini sovuq yoki issiqliqdan himoya qilish bo‘lgan bo‘lsa, bugun uning ahamiyati odamlarni ko‘rkam va chiroyli ko‘rinishini ta’minlashdagina ko‘rinmoqda. Yashirmaylik bugungi davrda ust-bosh, kiyinish uslublariga qarab muomila qiladigan, xarakater-xususiyatlarni baholaydigan, ijtimoiy kelib chiqishimizni taxmin qiladigan bo‘ldik.

Bunga sabab shiddat bilan rivojlanayotgan zamon talablarimi? Yoki odamlarning kiyimga bo‘lgan munosabati o‘zgarib borayotganimi? Balki dunyo dizaynerlarining har soatda 2 tadan yangi uslub o‘ylab topayotgani sababdir?

Hatto shunday ayollarimiz borki, bitta tadbirga kiygan libosini ikkinchi tadbirga kiymaydi. Uslublar, usullar tez o‘zgarmoqda. Bir biri bilan raqobatlashayotgan brendlар kim o‘zarga chiroyli, qulay, modellarni taqdim qilib



to‘xtamayaptilar. Bas shunday ekan, yoshlarga ham qulay, ham arzon va urfdagi liboslarni kiyish xar jihatdan maql kelishi tabiiy hol.

Manbaalarda yozilshicha, ilk o‘rta asrlarga oid devoriy rang tasvirlarda o‘sha davrda yashagan ajdodlarimizning kiyim-boshlari, ularning turli xil shakllari, mahalliy xususiyatlari hamda bu davrga oid mato turlari aks etgan. Ayniqsa, bu borada Afrosiyob, Panjikent, Varaxsha, Bolaliktepa, Xolchayon va boshqa qator yodgorliklardagi devoriy rang tasvirlarni alohida ta’kidlab o‘tmoq joizdir. Jumladan, bolalik tepadagi qazilmalar chog‘ida topilgan suratlarda erkaklar ustida yaktagi borligi aniqlangan. Yozma manbalarda «yaktak» so‘zi XII-XIII asrlardan e’tiboran ma’lumdir. Chunonchi, «Muqaddimatul-adab»da “yaktoyi, yaktayni kiydi” degan so‘zlar uchraydi. Devoriy suratlardan va arxeologik materiallardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, ilk o‘rta asrlarda o‘ziga to‘q toxaristonlik erkaklar ipakdan, kambag‘al aholi esa oq bo‘zdan chakmon kiyganlar. Ushbu ma’lumotlarni bevosita yozma manbalar ham tasdiqlaydi. Jumladan, mashhur xitoy sayyohi Syuanszan Toxaristonning kambag‘al aholisi paxtali mato va kam sonli boy-badavlat tabaqa vakillari esa junli matodan kiyim kiyishganini yozadi.

O‘zbekiston xalqlarining hozirgi kiyimida ham ildizi chuqur tarixiy an’anaga borib taqaladigan xususiyatlar mavjudligini kuzatish imkonini beradi. Farg‘ona vodiysining Munchoqtepa yodgorligidan eng qadimgi va ilk o‘rta asrlarga oid qator kiyimlarning namunalari, asosan, erkak ayol va bolalar ust-boshlari topilgan.

O‘zbek milliy kiyimlarini o‘rganishda XV-XIX aslarda Hirot va Buxoro maktablariga mansub musavvirlar yaratgan miniatyura san’ati asarlari juda qimmatbaho manba hisoblanadi.

Manbaalardan ko‘rinadiki milliy libos deganda faqatgina adres va yoki atlasni, turli do‘ppilarnigina hisoblash xatodir, matosidan qatiy nazar tikilish jihatidan ham o‘zbek milliy libosi deb atalishga haqli libsolar juda ko‘p ekan. Xatto milliy bosh kiyimlarimizdan biri bo‘lgan do‘ppining yuzdan ortiq turlari mavjud ekan.



Agar dizaynerlarimiz o‘zida milliylikni aks ettira olgan zamonaviy rahbar imidjini yarata olishganda edi, bajonidil milliylik aks ettirilgan libooslarni ish joylariga kiyib borilgan bo’lardi. Sababi milliy manfaatlar albatta, o‘z shaxsiy manfaatlardan ustunroq qo‘yiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda yurtimizda faoliyat olib borayotgan libos ustalarining faoliyatida milliylikga ko’proq e’tibor berilishlari va milliy liboslarimizni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirishlari lozim. Aynan tikuvchilik va libos yaratish sohasida ham yangi islohotlarga extiyoj borligini yashirmasligimiz kerak. Umid qilamizki, yaqin kunlarda bozorlarimizda bugunning yoshlari, zamon qahramonlariga mos, o‘zida milliylikni aks ettirgan zamonviy liboslarni uchatamiz!

### Foydalanilgan adabiyotar

1. Пармон Ф.М. Европейский костюм: стиль и мода - М., 1982.
2. Sadikova N. O ‘zbek milliy kiyimlari: XIX-XX asrlar - Т., 2006.
3. Литвинский. Б.А. Восточный Туркестан и Средняя Азия, система культур древнего и среднего Востока - М., 1986.
4. Internet saytlari